

Jahon Iqtisodiyotida Maxsus Iqtisodiy Zonalarga Investitsiyalarni Jalb Qilishda Xorij Tajribasi

Sh. Umirzaqova Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-
bosqich talabasi

J. Jurayev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-
bosqich talabasi


O. N. Xaitov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliya bozori o‘zaro bog‘langan global bozor sifatida jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyalarini o‘zida aks ettiradi. Jahondagi yirik moliya bozorlarida xalqaro kapital harakati ta‘minlanadi, iqtisodiyotning ma‘lum soha va tarmoqlariga portfel investitsiyalari kiritiladi, turli jamg‘armalar investitsiyalarga aylanadi. Yirik fond birjalarning indeksleri jahondagi davlatlar, institutsional investorlar va umumiy bozorning kayfiyatini ko‘rsatib turadi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog‘ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari.

So‘nggi yillardagi moliyaviy inqiroz nafaqat iqtisodiyotni zaiflashtirdi, balki aholining kambag‘al va moliyaviy jihatdan guruhlariga bo‘linishini jadallashtirdi. Ishsizlar soni ortishiga, ko‘p sonli aholi daromadlarini kamayishiga, turli xizmatlar va tovarlarga bo‘lgan talabning pasayishiga olib kelib, pirovardida mamlakatlar o‘rtasidagi suzib yuruvchi xorijiy investitsiyalarning oqimiga ham jiddiy ta‘sirini ko‘rsatdi.



1-rasm. 2009-2021 yillarda dunyo mamlakatlariga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'zgarishi¹⁰³

Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda jalb etilgan to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi erkin iqtisodiy hududlarga va dunyo mamlakatlarining real sektori tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida rivojlangan va yangi industrial mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada erkin iqtisodiy hududlarda yaratilgan infratuzilma tarmoqlari va qulay investitsion muhit xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu sababdan ham yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning maqbul usullaridan biri bo'lgan – maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish borasida rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bilan tanishib chiqish, ulardagi eng yaxshi jihatlarni milliy iqtisodiyotimizga tatbiq etish o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

AQShda ESHlarini tashkil etishning o'ziga xos sabablari va tarixi mavjud bo'lib, bu barcha EIHLarni tashkil etishga qiziquvchi davlatlarni qiziqtiruvchi tajriba hisoblanadi. AQShda EIHLarning dastlabki tashkil etilishi TSHlari tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur TSHlarining yuzaga kelishining esaning o'zigaxos asoslari va tarixi mavjud. Dastlabki TSHlarining tashkil etilishi mamlakatdagi Buyuk depressiya davriga to'g'ri keladi, ya'ni dastlabki TSHlari 1934-yilda Xoul- Smut qonunining salbiy samaralarini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan 2 ta muhim choraning biri sifatida yuzaga keldi.

Xoul-Smut qonuni 1930-yil 17-iyunda Tarif Aktining senatorlar senatorlar Reed Smoot va Devid Willis S Hawley tomonidan imzolanishi bilan yuzaga kelgan. Ushbu harakat AQSh tomonidan 20 mingdan ortiq import qilinadigan tovarlar narxini oshirdi.

1930-yil 17-iyunda Tarif Aktining qabul qilinishi oqibatida: AQSh tarixidagi o'tgan va keyingi 100 yillik ichidagi ikkinchi eng yuqori tarif stavkasini keltirib chiqardi; boj olinmaydigan importlar uchun o'rnatilgan tariflar natijasida AQSh savdo hamkorlari tomonidan ta'qibga uchragan va ular tomonidan AQShdagi Xoul-Smuta qonuni (Tarif Akti)ga qarshi qonunlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi; buning natijasida 20 mingdan ortiq import qilinadigan tovarlar narxining oshishidan chuqur depressiya AQSh tarixidagi Buyuk depressiya davrini keltirib chiqardi; Xoul-Smuta qonuni (Tarif Akti) Buyuk depressiya davrida AQSh eksporti va importining yarmidan ko'pini kamaytirishning asosiy omillari bo'ldi; bunga AQSh savdo hamkorlarining AQShda ishlab chiqarilgan tovarlari kirib kelishiga import bojlarini ko'tarishlari bilan javob berishi sabab bo'ldi; buning natijasida AQSh va uning savdo hamkorlari o'rtasida savdo hajmining keskin tushib ketishiga keltirib chiqardi; bu esa AQShda ishlab chiqarish hajmining va daromadlarning pasayib ketishi va ishsizlik darajasining keskin oshib ketishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1934-yilda qabul qilingan AQSh "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunining asosiy maqsadi – muayyan hududlarda bojxona imtiyozlari, shuningdek, Buyuk depressiya davrida haddan ziyod yuqori bo'lgan ishsizlik darajasini pasaytirish yordamida iqtisodiy faollikni oshirish yo'li bilan mamlakatni jahon savdosiga chuqurroq jalb etishdan iborat.


AQShda dastlab TSHlari xalqaro transport yo'nalishlaridagi port hududlardatashkil etildi va ushbu hududlarda pasaytirilgan bojxona bojlari (tariflari) amal qildi. 2-Jahon urushi davrida mazkur hududlarda ishlab chiqarish, deyarli olib borilmadi. 1980-yilda AQSh hukumati 1934-yildagi "Tashqi savdo hududlari to'g'risida"gi Qonunga tuzatishlar kiritdi. Unga ko'ra, TSHlarida ishlab chiqarishda yaratiladigan qo'shimcha qiymat soliqqa tortish maqsadlarida qo'shilgan qiymat sifatida hisobga olinmaydigan bo'ldi. Mazkur tuzatishlarining kiritilishi yuqori daraja va sifatdagi tovarlar ishlab chiqarilishini va xalqaro savdo hajmining o'sishini ta'minladi.

Bugungi kunda AQShda 2 turdagi TSHlari faoliyat ko'rsatadi: umumiy maqsadlar uchun zonalar (general purpose zones); ixtisoslashgan zonalar (maxsus belgilangan subzonalar) (special purpose subzones). AQShda EIHLarning kengtarqalishiga va rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar – ushbu hududlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarga berilgan turli xil imtiyozlar yordam beradi. Buning

asosiy afzalliklari:

1. Bojxona to'lovlari va mahalliy soliqlar, agar ular olinadigan bo'lsa, faqat tovarlar tashqi savdo hududidan bojxona hududiga olib o'tilganda va ichki iste'mol uchun mo'ljallangan (ichki bozorga olib kirilgan) taqdirda to'lanadi.
2. Hududdagi tovarlarga bojxona yig'implari amal qilmaydi va aksiz solig'i olinmaydi. Hududdagi kompaniyalar yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy mulki federal va mahalliy soliqlardan ozod etiladi.
3. TSHlaridan uchinchi mamlakatlarga eksport qilinadigan tovarlar boj, soliq va boshqa majburiy to'lovlarga tortilmaydi.
4. Eksport qilinadigan tovar, yaxshi tashkil etilgan himoya tizimi tufayli katta sug'urta xarajatlarini talab qilmaydi.
5. Tovarlarni eksport qilishning bojxona tartibi minimallashtiriladi, bojxona rasmiylashtiruvchi jarayoni minimal darajada.
6. Hududlardan tovar eksportida kvotalar o'rnatilmaydi.
7. AQShga olib kirish taqiqlangan tovarlar zonalar hududiga olib kirilmaydi. AQSh Bojxona xizmati talablariga muvofiq, zonaga tegishli ishlov berish uchun keyingi import bilan olib kirilishi mumkin.
8. TSHlaridan AQShga tovarlarni olib kirish importyorga hududga kirgan tovarlar yoki uni qayta ishlashda ishlatiladigan xorijiy komponentlar bo'yicha boj to'lovlarini to'lash imkonini beradigan tartibda amalga oshirishga ruxsat etiladi. Shunday qilib, importyorga pastroq burchni tanlash huquqi beriladi. AQShda maydoni bo'yicha eng katta TSH Florida shtatidagi Bredford shahrida joylashgan TSH hisoblanadi. Uning maydoni 1000 ga ni tashkil etadi.

Quyida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hamda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha katta amaliy tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar tajribalarini ko'rib chiqamiz. AQSH iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biridir. So'nggi statistik kuzatishlar asosida aytish mumkinki, ushbu mamlakatning iqtisodiy holati va rivojlanish darajasining dinamikasi jahon iqtisodiyoti tendensiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. AQSHning YAIM hajmi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM hajmi bo'yicha yirik 10 ta mamlakatdan biri hisoblanadi. AQSH oltin valyuta zaxirasi jahon valyuta zaxiralarining 65%ga yaqin miqdorini tashkil etdi.



2- rasm. 2013-2020 yillarda AQSHning YaIM va uning dunyo YaIMdagi ulushi to'g'risida ma'lumot¹⁰⁴

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AQSH bugungi kunda dunyoda yaratilayotgan YaIMning deyarli chorak qismiga egalik qilmoqda va bu ko'rsatkich yildan yilga o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu holat tahlilini raqamlarda kuzatadigan bo'lsak, 2013 yilda AQSH dunyo YaIMni qarib 22 foiz ulishga egalik qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib esa, ushbu ko'rsatkich 3 foizga oshib 24 foizni qayd etganligini va bu bilan bugungi kunda dunyoda iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlat ekanligin anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sul'tonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3